



## ONLAYN JURNALISTIKA TO'RTINCHI OAV SIFATIDA

**Dadaxon Raimboyev**

qoraqalpoq filologiya va jurnalistika

fakulteti 4-bosqich talabasi

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969179>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 02<sup>nd</sup> July 2022

### KEY WORDS

*onlayn, global, gazeta,  
internet, media*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola onlayn jurnalistikaning hozirgi davr OAV si bilan bog'liqligini isbotlovchi fikrlar haqida yozilgan*

XXI asrning boshlarida internet tarmog'idan ommaviy axborot vositalari foydalana boshlagan bo'lsada shu davrga qadar uning to'laqonli ommaviy axborot vositasi ekani borasida turli bahslar mavjud. Global tarmoqning ommaviy axborot vositasi hayotiga kirib kelishi yillarida bu mavzuda tushunchalar ziddiyati uzoq davom etadi. Internetni ommaviy axborot vosita sifatida tan oluvchi turli pozitsiyalar taqdiri bugun ommaviy axborot vositasi to'qnash kelayotgan va umuman zamonaviy jurnalistika mavzu mazmuniga ta'sir ko'rsatayotgan o'zgarishlarni teranroq anglash imkonini beradi. Ba'zi tadqiqotchilari orasida mazkur masala yuzasidan ziddiyatlar davomiy bo'lib ta'kidlash joizki ularning atroflari anchayin keskinligi bilan ajralib turadi. Rossiyalik olim Akopov internetni global ommaviy axborot vositasi tariqasida talqin etilsa hech qanday mubolag'a bo'lmaydi deydi. U kompyuter elektron tarmoqlariga yangi ommaviy axborot

vositasi sifatida yondashish bundan tashqari mass mediyaning mazkur turini tipologiyalashtirish masalasini ilgari suradi. Unga qarama-qarshi ravishda Davidov internetni navbatdagi axborot tashuvchi deya tavsiflab internet ommaviy axborot vositasi tushunchasini inkor etadi va mediyaning tashuvchilarni tiplarga ajratish mumkin bo'lgan umumiy sohasi bor. Shuningdek axborot tashuvchilar tiplari o'rtasidagi ziddiyatlarni barham toptirish hamda ularning afzalliklarini yagona ommaviy axborot vositasida umumlashtirish imkonini beruvchi muhit hamda vujud deb hisoblaydi. Ayrim mutaxassislar esa boshqa bir fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Qator kuzatishlarga ko'ra hozircha internet an'anaviy ommaviy axborot vositasi bilan raqobatga kirisha olmaydi. Hamma o'zining texnik imkoniyatlari tufayli ba'zi mezonlarga ko'ra ulardan o'zib ketgan mazkur mulohaza bir nechta asosga ega. Birinchidan onlayin ommaviy axborot vositasidan sayyora



aholisining barchasi birdek foydalanilmaydi, ikkinchidan bunda soʻz internet interet jurnalistikadek nazariy jihatdan toʻla shakllanmagan jurnalistik faoliyat turi xususida bormoqda. Bir guruh olimlar esa anʻanaviy OAV ning internet zamonidagi kelajagini dastlabki bosqichda yoq bashoratlab gazeta yoki boshqa anʻanaviy ommaviy axborot vositalarining oʻrni internetga ulanishlar bilan belgilanadi deydi. Mahalliy tadqiqotchilarda axborot texnologiyalari imkoniyatlari Oʻzbekiston anʻanaviy matbuotida sifat izlanishlarini taʼminlanganligi eʼtirof etiladi. Shubhasiz odatiy mass mediya tizimida texnologiyalardan foydalanish axborot uzatish va tarqatishning qoʻshimcha imkoniyatlarini taqdim etish ommaviy informatsion taʼsir koʻrsatishning yangi shakllari usullarini yaratadi. Bazilar axborot yetkazishning yangi vositasi anʻanaviy ommaviy axborot vositasiga qayta tugʻilish imkonini beradi deb hisoblaydi. Ushbu fikr OAV uchun odatiy sanalgan mediyalar internetga faqat axborot manbai sifatida qarashi va buning natijasida ularning darajasi

sezilarli darajada tayanadi boyiyotganligi bilan asoslanadi. Boshqa olimlar esa texnologik imkoniyatlar tarmoqni toʻla istiqbolli biroq kam darajada muqobil noanaviy ommaviy axborot vositasiga aylantiradi deb hisoblaydi. Qator Yevropa mamlakatlari va AQSHda esa oʻquvchilar auditoriyasining kamayganligi anʻanaviy matbuot nashrlari terajinning tushganligi sezilmoqda. Tahlilchilar esa mazkur holatga javoban bunday sharoitlarda omon qolish uchun ommaviy axborot vositasi tubdan oʻzgarishi shartiligini alohida taʼkidlaydi. Noshirlik va texnologiyalar assosiasiyasi olimlarning fikricha ommaviy axborot vositalari oʻz oʻrnini saqlab qolish uchun bir kanal orqali axborot tarqatishdan vos kechib ikki yoki bir necha vositalar bilan axborot uzatish faoliyatiga oʻtishi yaʼni nafaqat bosma barcha koʻrinishga ega boʻlishi lozim. Nazariyotchilardan fikr ravishda tahririyatlarda amaliyotchi mutaxassislar har bir ommaviy axborot vositasi turi oʻz vazifasiga ega va aynan shu xislat ularning oʻziga xosligini taʼminlovchi xususiyatlar deb hisoblaydi.